

BARKAMOL AVLODLARNI BURCH VA MA'SULLIK RUHIDA TARBIYALAB - TA'LIM BERISHNING KASBIY AHAMIYATI

N. Boychaeva,

JDPI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlodlarni Prezidentimiz farmonlari asosida 5 ta muhim tashabbusda ilgari surilgan ulug' g'oyalar asosida, yoshlarni barcha jarayonlarda qo'llab quvvatlash. Ularning iqtidorini, iste'dodini yuzaga chiqarishda, musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning barcha turlariga jalb etish, bo'lajak mutaxassislar davr talabi asosida ta'lim berib tarbiyalash, ajdodlar merosini o'rganish va hayotga tadbiq etish, ularni vatanparvar inson etib tarbiyalashning mohiyati, bog'cha, maktab va Oliy va o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun imkoniyatlarni yaratilganligi, yoshlarning bu imkoniyatlardan unumli foydalanishlarida, ajdodlarga munosib vorislar bo'lishida komil va ma'sullik ruhida ularga ta'lim va tarbiya berish masalalari ifodalangan.

Kalit so'zlar: beshta muhim tashabbus, mazmun, kasbiy nuqtaiy nazar, tashabbus, yoshlar, ta'lim sohasi, manbalar, mulohazalar

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga murojaatnomasida- "Sharq donishmandlari aytgandek, "Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros—bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir" - deya ta'kidlagan. Shunday ekan, bu masalaga Mustaqil yangilangan O'zbekistonimizni har tomonlama rivojlantirishda, o'zbek ziylolarining yakdillik bilan, ertangi kun egalarini har tomonlama yetuk inson, ma'sul shaxs sifatida, sharqona milliy ruhda tarbiyalab, ta'lim berish, dolzarb masala ekanligini teran anglashimizni, hamda uni faqat o'qibgina qolmasdan uqib olish hamda, hayotga, ta'lim tarbiya jarayonlariga tadbiq etish, davr talabidir.

Ayniqsa, ushbu dolzarb masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni

kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya, va sportga keng jalg etish, ularni axborot texnalogiyalardan foydalanish, ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, ayol-qizlar bandligini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida to'liq bayon etildi.

Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga chorlaydi. Ushbu tashabbusga asoslanib, "Musiqa madaniyati fakulteti"da tahsil olayotgan bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifa yuklatilgan bo'lib, ayniqsa, "Musiqa ta'limi" yo'nali shiga qabul qilingan birinchi bosqich talabalardan nota savodxonligiga jiddiy e'tibor berish va uni qunt bilan o'rghanishlarini taqozo etadi. "Nota savodxonligi", "Musiqa savodi"- musiqa nazariyasi haqidagi boshlang'ich ta'limotdir. Bu ta'limot bolalar musiqa maktablarida, musiqa savodi boshlang'ich musiqa nazariyasi kursiga kiradi. Nota (lotincha, italyancha,-belgi) - musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgidir. Musiqa tovushlari qisqa va uzun bo'lishiga ko'ra bularni yozib ko'rsatadigan belgilar (notalar) turli shaklda bo'ladi. Eng uzun nota O shaklida yozilib, bu butun nota deb ataladi. Bulardan tashqari, yarimtalik, choraktalik, nimchoraktalik, o'n oltitalik va o'ttiz ikkitalik, notalar mavjuddir. Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisi albatta, "Musiqa nazariyasi" fanini mukammal o'rghanishi, nota savodxonligini puxta bilishi, va talabalik davrida amaliyotchi pedagok sifatida maktab jamoasi va sinf o'quvchilari davrasida o'zining pedagogik mahoratini bilim va saviyasini, ichki va tashqi ma'naviyatini, muomila, hamda kiyinish madaniyatini, tajribasini ko'rsata olish imkoniyatiga ega bo'lishi davr talabidir. Bu davrida o'quvchilarga musiqa madaniyati faninig mutaxassisasi sifatida bakalavr diplomiga to'liq munosib mutaxassisiga xos ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishi lozim. Yosh avlodlarni musiqa san'atidan bahramand eta oladigan, milliy va boshqa musiqiy sozlarni talab darajasida chalishi va qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgatishdek bilimga, salohiyatga ega bo'lishi davr taqozasidir. Yosh mutaxassislarimizda ishchanlik, bilimdonlik, zukkolik, fidoiylik, dilovorlik, halollik, xushmuomilalik, mehribonlik,

mehnatsevarlik, kabi kasbiy fazilatlarning takomillashuvi o‘z kasbiga munosib shaxs ekanligidan dalolatdir. Barcha o‘zbek ziyolilari barkamol avlodlarga ta’lim-tarbiya berishni maqsad qilib olar ekan. Sharq donishmandlari aytganlaridek:

- bo‘lajak musiqa madaniyati o‘qituvchilarini, musiqa san’ati vositasida, milliy ma’naviy tarbiyalashda, ajdodlar merosini qund bilan o‘rganish;
 - ajdodlarimizdan katta meros bo‘lgan aqlni –zakovatni va ilmni o‘rganish;
 - eng katta merosimiz bo‘lgan, qadimiylar milliy ma’naviyatimizni, madaniyatimizni, ma’rifatimizni o‘zligimizni yanada teran anglash;
 - barkamol avlodlarni hech kimdan kam bo‘lmaydigan, xech kimga yengilmaydigan, shijoatli, raqobatbardoshli, yuksak ma’naviyatli, avlodlarni tarbiyalab ta’lim berish;
 - yoshlarni fikr qaramligidan asrash, va mustaqil shaxs sifatlarini tarkib topishida, qattiyatlik, mardlik, jasurlik, kabi tuyg‘ularni tarannum etuvchi asarlarni qo‘sinq va ashulalarni muntazam o‘rganish va o‘rgatish;
 - o‘zbek bastakor va kompozitorlarining Vatanparvarlik va insonparvarlikni tarannum etuvchi asarlarni muntazam targ‘ib etishni yo‘lga qo‘yish;
- Nemis faylasufi aytganidek “Adolat yo‘qolgan paytda, insonning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi” jumlasida, ta’lim va tarbiyaning buzilishiga yo‘l qo‘yish, xoinlik belgisi ekanligini anglash;
- milliy ma’naviyatimizni, milliy madaniyatimizni, qadriyatlarimizni qadrlashni, ota-onalarini, ustozlar va murabbiylarni qadrlash va e’zozlashda zng avvalo o‘z-o‘zini hurmat qilish o‘z qadrini bilish mazmunini teren anglash;
 - bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘z oliy maqsadi sari dadil harakatga, izlanishga, halollik va poklikka o‘rgatish, hamda o‘ziga ishonch ruhida tarbiyalash;

Yoshlar ongiga eng katta qashshoqlik bu- bilimsizlik ekanligini singdirishga oid masalalarни talabalar bilan o‘tkaziladigan “Muloqot” soatlarida kengroq manbalar vositasida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” kitobi, xalqimiz va barcha o‘zbek ziyolilari hamda, barkamol avlodlar uchun, mustaqil mamlakatimiz ma’naviy hayotida katta voqeа bo‘lganligi, barchamizga ma’lum. Bu fundamental asar bugungi kunda ham barchamiz uchun dasturilamal vazifasini o‘tamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2021 yil- “Yoshlarni qo‘llab – quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”dagi Oliy majlisga murojaatnomasida .. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan ezgu g‘oya asosida O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligining 30-yilligi keng va munosib nishonlandi....” Yangi O‘zbekiston- maktab ostonasidan, ta’lim –tarbiyadan boshlanadi” - degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.“... Yosh avlodlarga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim- tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va ikoniyatlarni safarbar etamiz” – deya ta’kidlaganlar.

Bunday g‘amxo‘rlik uchun barcha yoshlar yakdillik bilan raqobatbardoshli, bilimli, zakovatli, g‘ururli va shijoatli, buyuk ajdodlari kabi mard, matonatli, jasur, jura’tli shaxslar sifatida, oilada, mahallada, jamiyatda munosib milliy ma’naviy tarbiyalangan yoshlar albatta, ishonchga, e’zozga sazovor barkamol avlodlar safidan joy olishi muqarrar.

Bugungi kunda barcha yoshlarga, bo‘lajak mutaxassislarga, yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqib, tashabbuskorlikni, yangi innovatsion g‘oyalarni, yaratuvchilik salohiyatini, o‘z iqtidorini, ilmiy ijodiy ishlarini, o‘z hayotining mazmuni sifatida rejalashtirishi, davr talabidir.

Buyuk mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o‘z davrida yoshlarga murojaat qilib: -”Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”, deb yozganlar. Jamiyatda o‘z o‘rnini topishni istaganlar, qaysi sohani tanlashidan qat’iy nazar insoniyat olamiga be’minnat yaxshilik qilishni istaydiganlar, chinakam ajdodlariga munosib vorislar, komillikka intilib, ilm-va kasb-hunarli, halol va pok shaxs bo‘lishlari ularning tarbiyasiga bog‘likdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy.”Saddiy Iskandariy” G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti Toshkent.1978.y.
- 2.Islom Karimov.”Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”.Toshkent. “Ma’naviyat” 2016.y.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi.Toshkent. “Tasvir” nashriyoti.2020.y.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent.-2021.y.
- 5.A.Ibrohimov. X Sultonov.”Vatan tuyg‘usi” Toshkent—“ O‘zbekiston”—1996.y.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.2019 yil 19 mart.Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus.